



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI

2022 - yil 15 - aprel

VI-55-71-7-106-K/22

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

### **Sud organlari faoliyatining 2022-yil 1-chorak davomida odil sudlovni amalga oshirish borasidagi ishlari yuzasidan axborotlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Kattaqo'rg'on shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik beshinchi sessiyasi

### **QAROR QILADI:**

1. Fuqarolik ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tumanlararo sudi raisi T.Kurbanov va Jinoyat ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on shahar sudi raisi A.Oltiboyevning 2022-yil 1-chorak davomida amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Fuqarolik ishlar bo'yicha Kattaqo'rg'on tumanlararo sudi (T.Kurbanov)ga oilaviy-mulkiy nizolarni ko'rib chiqishda mediatorlik instituti imkoniyatlaridan foydalanish;

oilaviy nizolarni deputatlar ishtirokida hal etish choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

3. Jinoyat ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on shahar sudi raisi (A.Oltiboyev)ga:

aholi bilan muloqotlarda sud xodimlari o'z faoliyatlari yuzasidan axborot berib borishlarini tashkil etish;

sayyor sud jarayonlarini o'tkazishga keng e'tibor qaratish;

fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini qat’iy mustahkamlash, sudni tom ma’noda “Adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirishga erishish;

sudlar tomonidan ko‘riladigan ishlarni ko‘rib chiqishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, jumladan, elektron sud stenografiyasi, videokonferensiya aloqani keng joriy etishga erishishi tavsiya etilsin.

4. Fuqarolik ishlar bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on tumanlararo sudi, Jinoyat ishlari bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on shahar sudi (T.Kurbanov, A.Oltiboyev)ga:

sudlar tomonidan sud ishlarini apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish amaliyoti har chorakda e‘lon qilishga alohida e‘tibor qaratish;

sud qarorlarining sifatini yaxshilash, har bir ish yuzasidan qonuniy, asosli va adolatli qarorlar qabul qilinishiga erishish maqsadida yuqori instansiya sudlari tomonidan sud qarorlarining o‘zgartirilishi va bekor qilinishi sabablarini tahlil qilib, sud qarorlari barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilab, xalq deputatlari shahar Kengashiga ma‘lumot taqdim qilish;

sud-huquq masalalari bo‘yicha, korrupsiya holatlari va unga qarshi kurashish to‘g‘risida jismoniy va yuridik shaxslar hamda ularning vakillaridan kelib tushayotgan hujjatlar va boshqa materiallarni o‘rganish natijalarini umumlashtirish va tahlil qilish, mazkur ishlarning natijalari haqida keng jamoatchilikni xabardor qilib borish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va Xalq qabulxonalari orqali murojaatlar oshgan, huquqbuzarliklar ko‘paygan soha va tarmoqlar mutasaddilari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimliklar, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish;

aholi bilan muloqotlarda sud xodimlari o‘z faoliyatlari yuzasidan axborot berib borishlarini tashkil etish;

sayyor sud jarayonlarini o‘tkazishga keng e‘tibor qaratish;

fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish orqali xalqimizning sud tizimiga bo‘lgan ishonchini qat’iy mustahkamlash, sudni tom ma’nodan “Adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirishga erishish;

sudlar tomonidan ko‘riladigan ishlarni ko‘rib chiqishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, jumladan, elektron sud stenografiyasi, videokonferensiya aloqani keng joriy etishga erishishi tavsiya etilsin.

5. Xalq deputatlari shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasiga (N.Petrova) shaharda sud organlari tomonidan sud tizimida odil sudlovni ta’minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalar yuzasidan masalalarni doimiy komissiyalar qo‘shma yig‘ilishlarida muhokama etib borsin.

6. Fuqarolik ishlar bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on tumanlararo sudi, Jinoyat ishlari bo‘yicha Kattaqo‘rg‘on shahar sudi (T.Kurbanov, A.Oltiboyev) shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, shahar Prokuratura bo‘limi hamda shahar Adliya bo‘limi bilan birgalikda mahallalarda aholining huquqiy ongini oshirish maqsadida targ‘ibot ishlarini olib borsin.

7. Shahar hokimi o‘rinbosari – oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i v.b (Sh.Kuchkarova) oilaviy ajrimlarni oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqsin va mahallalarda targ‘ibot ishlarini olib borsin.

8. Xalq deputatlari shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Petrova):

sud raislarining bergan axboroti mazmuni va ular bo‘yicha sessiya ishida chiqarilgan xulosalarni jamoatchilikka yetkazish choralarini ko‘rish;

sudlarga jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilish bo‘yicha zarur shart-sharoit yaratish to‘g‘risida Kengash so‘rovi kiritish;

ochiq va sayyor sud majlislarida deputatlar ishtirokini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

9. “Kattaqo‘rg‘on tongi” gazetasi (T.Xamidov) sud organlari tomonidan

odil sudlovni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (N.Petrova) zimmasiga yuklansin.

**Kengash raisi**



**G. Alimova**